UMUMTA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM OLAYOTGAN XULQI OG’ISHGAN BOLALAR BILAN ISHLASH BO’YICHA PSIXOLOGIK TAVSIYALAR

Mansurova Salomatxon Komiljon qizi

Andijon viloyati Andijon tumani 32 - umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xulqida og’uvchanligi bo’lgan o’quvchilar, ularning sinf rahbarlari,ota-onalari bilan ishlash bo’yicha tavsiyalar keltirilgan

Kalit so’zlar: Og’ishgan xulq, tavsiya, bezori, o’g’ri, tarbiyasi qiyin, og’irtabiat.

O’quvchilardagi psixologik xususiyatlar, rivojlanishida o’ziga xos tomonlar, ular o’rtasida salbiy odatlarni oldini olish va boshqa masalalar doirasida umumta’lim maktablari amaliyotchi psixologlari tomonidan qator tadbirlar, ya’ni psixotrening va psixokorrektsion ishlar olib boriladi. Maktablarda bolalarga nisbatan ba’zan “tarbiyasi qiyin bola” jumlasi ishlatiladi. Asosan tarbiyasi qiyin bolalar deganda ko’p holatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash nazoratchilari ro’yxatida hisobga olingan, giyohvandlik va spirtli ichimlik ichishga, bezorilik va o’g’rilikka moyil o’quvchilar nazarda tutiladi. Kuzatishlardan ma’lum bo’lishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik ta’sirlarga qarshilik ko’rsatadi, ularning hulqida o’zini biz hohlaganday tutmaslik holatlari kuzatiladi.

Tarbiyasi qiyin bolalar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri ularda o’qishga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo’lishidir. Odatda bunday munosabatning paydo bo’lishiga boshqa sabablar ham ta’sir ko’rsatishi mumkin. Jumladan o’quv faoliyati usuli, malakalari to’la tarkib topmaganligi sababli nisbiy bilim olish bilan qanoat hosil qilish, o’zlashtirish qobiliyatining sust rivojlanganligi, muayyan vaziyatlarda xukm va xulosa chiqarishda qiyinchilikka duch kelish, o’qituvchilar

tomonidan o’quvchiga ob’ektiv baho berilmasligi, o’qituvchi tomonidan bolaning individual-psixologik va intellektual imkoniyatiga yetarlicha e’tibor berilmasligi, o’qitish saviyasining pastligi, darslarning qiziqarsiz o’tilishi, o’quvchining sinf jamoasi bilan yaxshi aloqada bo’lmasligi va boshqalar. O’quvchi bilan jamoa fikrining mos kelmasligi uning jamoa ichida o’z o’rnini borgan sari yo’qotib borishiga sabab bo’ladi. Jamoa a’zolari bunday o’quvchining qarashlarini vaqti-vaqti bilan hisobga olishlari yaxshi natija berishi mumkin. O’quvchining fikr va qiziqishlarini jamoaning qo’llab quvvatlamasligi yoki beparvoligi uni qonunbuzarlikka undaydi va giyohvandlik kabi salbiy holatlarning kelib chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Natijada bola uchun kelajak rejalarining poymol bo’lish xavfi tug’ilib, o’qishdan va jamoadan yuz o’girgan o’smir o’z kelajagini, orzu-umidlarini maktab va tengdoshlari faoliyatiga bog’lashdan ko’ra, yangi “do’stlari” bilan aloqa qilishni afzal ko’radi va boshqa kishilardan najot izlaydi. Buning natijasida o’smir nosog’lom xulqli bolalar to’dasiga tushib qoladi va ular xulq – atvoriga xos bo’lgan xarakterga ega bo’ladi. Bundan tashqari, oilaviy sharoitning salbiy ta’siri ham tarbiyasi og’ir o’smirlarning kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Ayrim oilalarda bola uchun zaruriy imkoniyatlar mavjud emasligi sababli bola nohush holat bilan yolg’iz kurash olib borish kechinmalari bilan yashaydi. O’smir dunyosida oilaviy sharoitga nisbatan paydo bo’lgan norozilik hissi kundan kun avj olib, ichki qo’zg’olonga aylanib boradi. Bundan tashqari, ota-ona o’rtasidagi munosabatlarning nosog’lomligi, ba’zi ota-onalarning spirtli ichimliklarga ruju qo’yishlari ham bolaning ruhiy dunyosiga ta’sir ko’rsatadi. Ko’pincha, o’quvchilardagi tarbiyasi qiyinlik oiladagi va ta’lim tizimidagi pedagogik qarovsizlik natijasida yuzaga keladi.. Pedagogik qarovsizlik quyidagi darajalarda tavsiflanadi:

1.Past. hatti-harakat, xulq-atvordagi beqarorlik. O’z “men”iga ortiqcha baho berish. Asosan yoshiga xos bo’lgan xarakter belgilarining ustunlik qilishi.

2.O’rta. Kattalar va tengqurlari bilan aloqaning buzilishi. O’qish va mehnatga qiziqmaslik, nizolar egoistik yo’nalishga asoslanishi. Pedagogik ta’sir choralari to’g’ri qabul qilingan holda unga amal qilmaslik.

3.Yuqori. Salbiy xarakter xususiyatlari yaqqol namoyon bo’ladi. huquqbuzarlik oshkora qilinadi. Kattalar bilan o’zaro munosabatda tajovuzkor bo’ladi. O’zlari to’g’ri deb qabul qilgan “ahloq normalari”ni oqlashga urinadilar. Ular huquqbuzarlik chegaralarini tushunib yetmaydilar.

4.Kriminal. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bo’lib, ularning hulq-atvorini boshqarib bo’lmaydi. Bundaylar har qanday tarbiya vositalariga qarshilik ko’rsatadilar. Hatti harakatlarida tajovuzkorlik ko’proq uchraydi. Ular o’zlarining huquqbuzarlik motivlarini o’zlari belgilagan “ahloqiy me’yorlar” bilan o’lchaydilar, natijada jinoyatga qo’l uradilar.

Amaliyotchi psixolog avvalo bolalarning oilaviy ahvolini o’rganish, maktab bilan ota-ona o’rtasida uzviy aloqani o’rnatish, fan o’qituvchilari bilan aloqani mustahkamlash, o’quvchining darsga qatnashini kuzatish, darsdan tashqari faoliyatini nazorat qilish, turli savol-javoblar o’tkazish orqali tarbiyasi og’ir bolalar bilan ishlash dasturi va rejalarini belgilab olishi lozim. Bundan tashqari psixolog maktab shifokori, tashxis markazi shifokori bilan hamkorlikda bolaning tibbiy varaqasi bilan ham tanishib chiqishi kerak bo’ladi. Agar bola sog’lom rivojlangan bo’lsa-yu, maktab va oila tarbiyasiga bo’ysunmasa, bunday vaziyatlarda psixolog yordamga kelishi va. avvalo bola bilan suhbatlashib, nima uchun uning hulqida bunday o’zgarishning yuzaga kelganligi, ko’cha ta’siriga berilishi, salbiy norasmiy guruhlarga a’zo bo’lib qolishi, darsni sababsiz qoldirishi, past o’zlashirishi, jamoat ishlarida qatnashmaslik sabablarini aniqlaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey:Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003.320 s.

2. Spravochnik po resheniyu krossvordov i skonvordov .- Rostov n\D: Vladis, 2002. – 640 s.

3. Dyui Dj. “Psixologiya i pedagogika mыshleniya”. M., Progress, 1998.

4. Karnegi D. “Kak zavoevat druzey i okazыvat na nix vliyanie”. M., Progress, 1990.

5. Karimova V.M. Targ‘ibotning psixologik uslublari.- T.: Ma’naviyat, 2000.